

Najmiddinova Zamira Shaxopitdinovna

Namangan viloyati, Yangi Namangan tumani

69-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga zamonaviy usul va o‘yinlar orqali ta’lim-tarbiya berishning samarasidan tayyorlangan usul va o‘yinlar yoritilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarga mavzuni qiziqarli, tez va oson o‘rgatishda foydalaniladigan usul va o‘yinlar haqida so‘z boradi.*

THE EFFECT OF TEACHING ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS THROUGH MODERN METHODS AND GAMES.

Abstract: *In this scientific article, the methods and games prepared from the results of teaching elementary school students through modern methods and games are highlighted, in which the subject is taught to students in an interesting, quick and easy way. it talks about the methods and games used.*

ЭФФЕКТ ОБУЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ СОВРЕМЕННЫМИ МЕТОДАМИ И ИГРАМИ.

Аннотация: *В данной научной статье освещаются методики и игры, подготовленные по результатам обучения учащихся начальных классов с помощью современных методик и игр, в которых предмет преподается учащимся интересно, быстро и легко. и используемые игры.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: *boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga zamonaviy usul va o‘yinlar orqali ta’lim-tarbiya berishning samarasidan tayyorlangan usul va o‘yinlarning ahamiyatini ochib berish.*

The purpose of writing this article: *to reveal the importance of methods and games prepared from the results of education through modern methods and games for elementary school students.*

Цель написания данной статьи: *раскрыть значение методик и игр, подготовленных по результатам обучения современными методиками и играми для учащихся начальных классов.*

Usul va o‘yinlar: “Ishbop o‘yin”, “Zaifband”, “Tadbirkor”, “Zehn matni”, “O‘rmondagи yig‘ilish”, “Kuz savatchasi”, “To‘rt aka-uka”, “Kim ko‘p gul teradi”, “Eslab qoling”, “O‘zing tanla”..

Methods and games: "Business game", "Weak band", "Entrepreneur", "Mind text", "Meeting in the forest", "Autumn basket", "Four brothers", "Who picks the most flowers", "Remember", "Choose yourself".

Методы и игры: «Деловая игра», «Слабый бэнд», «Предприниматель», «Умственный текст», «Встреча в лесу», «Осенняя корзинка», «Четыре брата», «Кто сорвет больше цветов», «Вспомни», "Выбери сам".

Natija: boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda usul va o‘yinlardan foydalanish ularning og‘zaki va yozma savodxonligini o‘sishiga yordam beradi.

Result: the use of methods and games in the education of elementary school students helps to increase their oral and written literacy.

Результат: использование методик и игр в обучении младших школьников способствует повышению их устной и письменной грамотности.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, innovatsion texnologiya, o‘qitish uslublari, ta’lim metodlari, zamonaviy o‘yinlar, og‘zaki va yozma savodxonlik...

Key words: education, innovative technology, teaching methods, educational methods, modern games, oral and written literacy...

Ключевые слова: образование, инновационные технологии, методы обучения, методы обучения, современные игры, устная и письменная грамотность....

Ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilayotgani, bu bugungi kunning davr talabi ekanligi barchamizga ayon. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi quyidagi innovatsion usullardan foydalana bilishi va ularni amalga oshira olishi lozim.

O‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar:

-Innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mazmun mohiyatini bilishi oshira olishi lozim;

-Innovatsion texnologiyalarning ta’lim maqsadini amalgam oshirishdagi o’rni va rolini bilishi;

-Innovatsion texnologiyalarni fanlar bo‘yicha tahlil qilish qo‘llash prinsiplarini bilishi;

-Ta’limiy va ishchanlik o‘yinlarni bilishi;

-Muommoli rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini bilishi;

-O‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta’minlash yo’llarini bilishi;

-O'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishini mahoratini oshirish usullarini egallashi;

-Ko'rgazmali o'qitish usullarini bilishi va egallashi;

-Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab namunaviy imitasiya o'quv mashg'ulotlarini o'tishi;

-Ta'lif-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi;

Innovatsion usul turlari

I. Modellashtirish(Trenarovka-mashq qilish);

O'qitishing bu usuli o'z ichiga real hayotni qayta tiklash uchunishlab chiqilgan moslama, asbob yoki vaziyatni o'z ichiga oladi.

Qo'llanilishi;

- Turli vaziyatlarda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni qo'llashda
- Oddiy va murakkab mehanik va elektr asboblar yasashda, tezkor ko'nikmalar va qaror qabul qilishni amalgam oshirishda;
- Xaflı va kechiktirib bo'lmaydigan vaziyatlarda boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlashda;
- Ilgari o'rnatilgan prinsiplari real hayotiy vaziyatlarda qo'llashda;

Afzalligi:

- O'quvchilar faolligi va jalg qilinishini mustahkamlaydi;
- eslab qolishni kuchaytiradi.

II. Namoyish qilish.

Demonstransiya –«ko'rsataman, isbotlayman»degan ma'noni anglatadi.

Bu o'qitish usulida o'qituvchi topshiriqni bajarib, o'quvchilarga bu topshiqni qanday bajarish kerakligini ko'rsatadi. Bu o'qitish usulidan so'ng, o'quvchilarga topshiriqni bajarib ko'rish imkonini berish kerak.

Qo'llanilishi:

- topshiriqni qanday bajarishni ko'rsatish uchun;
- muommolarni hal qilish va analistik moxirlikka o'rgatishda;
- texnika xafsizligini o'rgatishda;
- texnik vositalar va asboblar bilan ishlashni o'rgatishda;

Afzalligi:

- o'quvchi o'z ko'zi bilan ko'radi;
- tushinish va eslab qolishga yordam beradi;
- qiziqishni oshiradi;
- o'qitishning juda faol shakli ekanligi.¹

Bu borada darslarni tashkil etishda usul va o'yinlardan foydalanish lozim.

“Ishbop o'yin” metodi - berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtiroychilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat’iy belgilangan va o‘yin davomida o‘zgarmas rolni ijro etishlari lozim.

1. Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012-yil, 23-bet

Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o‘z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. SHuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi. Quyida “Ishbop o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Ishbop o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi.

Qatnashchilar uchun yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

2. Ta’lim oluvchilarni o‘yining maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.

4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollari bo‘yicha tayyoragarlik ko‘radilar.

5. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

6. O‘yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.

7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari assosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi, berilgan vaziyatda o‘zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko‘rsata olishi kerak.

“Ishbop o‘yin” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini o‘z qarashlari va hulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;

- ta’lim oluvchining boshlang‘ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

- ta’lim oluvchilar o‘z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.



“Zaifband” o'yini.

Mashg'ulotni sifatli va qiziqarli tarzda olib borish uchun to'garak rahbari tashkilotchilik xususiyatiga ega bo'lishi, har bir mashg'ulotni o'zgacha har xil o'yinlar asosida tashkil etilishini ta'minlashi shu mashg'ulotga keladigan o'quvchini mashg'ulotdan zeriktirib qo'ymasligi kerak. Shundagina o'quvchilarning to'garak rahbariga bo'lgan hurmati ortadi, hamda mashg'ulotni qoldirmaslikka harakat qiladi. O'quvchi mashg'ulotga o'zgacha nazar bilan qaray boshlaydi.

“Zaifband” o'yini yangi mavzu o'tilgandan so'ng o'tkaziladi.

Doskaga o'ziga ishongan 5 ta yoki 6 ta o'quvchi chiqadi. To'garak rahbari o'tilgan mavzu yuzasidan 10 -15 ta savol tuzadi. Shu savolni o'quvchilarga ketma-ket beradi. Savolga javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin oxirida kim qolsa o'sha o'quvchi g'olib sanaladi va guruhning eng faol o'quvchisi deb e'lon qilinadi va eng faol o'quvchi deb yozilgan kartochka beriladi. Keyingi mashg'ulotlarda bu o'yin yana o'tkaziladi. Golib o'quvchi olgan kartochkani saqlab qolishi kerak. Qaysi o'quvchi g'olib bo'lsa kartochka o'sha o'quvchiga tegishli bo'ladi.

Bu o'yin mashg'ulotlarni mustahkamlashda yaxshi natija beradi

“Tadbirkor” usuli. Quyida berilgan har bir shakl ichidagi so'zlarni qaysi turkumga tegishli ekanligini toping, nima uchunligini tushuntiring.

Aytib berdi, olma, anor, qizil, bilim, shaftoli, bordi, katta



Ushbu usul asosan guruh sardorlariga beriladi. Bunda o'quvchiga vaqt beriladi. Birinchi bo'lib to'g'ri, aniq qilib so'zlarni qaysi so'z turkumiga mansubligini aniq dalillar bilan isbotlab bergen g'olib bo'lgan guruh sardori eng ishbilarmon, faol o'quvchisi deb sanaladi.

“Kim ko‘p gul teradi” usuli. Bunda o‘quvchilarga mavzu yuzasidan savollar beriladi. To‘g‘ri berilgan javob uchun bir gul beriladi.



“Zehn matni” usuli. Bu usul darslikda berilgan matn bilan o‘quvchilar tanishib bo‘lgach zehnini sinash uchun, yoki uyga vazifa sifatida berilgan matnni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. Bu usul orqali o‘quvchilarning xotirasi mustahkamlanadi. Buning uchun o‘quvchilarga matn yozilgan qog‘oz tarqatiladi. Matn ichidagi ayrim so‘z va raqamlar o‘zgartirib qo‘yiladi. O‘quvchilar esa ana shu xatolikni topib, matn tagida berilgan jadvalga joylaydilar.



Natijaviyligi:

- Ziyaraklik oshadi;
- Mustaqil fikrlash ko‘nikmasi rivojlanadi;
- Qiyosiy o‘rganish rivojlanadi.
- So‘z ajratish malakasi rivojlanadi.²

“O‘rmondagi yig‘ilish” usuli.

Tashkil etish tartibi. O‘qituvchi o‘quvchilarni rollarga bo‘linadigan, masalan, ayiqpolvon, quyon, tipratikon, tilki, bo‘ri, va h,k, Barcha o‘rmon hayvonlari o‘zlariga yig‘ilish raisini saylaydilar. Har bir o‘yin qatnashchisi qishga qanday tayyorgarlik ko‘rayotganligi haqida gapirib beradi. Bu jarayonda o‘yin qatnashchilari bir- birlariga maslihatlar beradilar, yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilashga harakat qiladilar.

“Kuz savatchasi” o‘yini o‘ynaladi. Bunda daraxdagi olmalar terib olinadi va ustiga yozilgan qisqa savollarga javob beriladi. Olmaning orqa tomonidagi rasmning bosh harfi raqamlar joylashgan kalitga terib chiqiladi. Shunda yangi mavzuning nomi kelib chiqadi.



2. . “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 2014-yil №2- soni, 89-bet


“To‘rt aka-uka” usuli.

O‘tkazish tartibi. O‘qituvchi to‘rt o‘quvchini tanlab olib, ularga oldindan tayyorlab qo‘yilgan yil fasllari yozilgan qalpoqchalarni tarqatadi. To‘rt aka-uka uchrashadilar. Kuz,qish, bahor va yoz, Barcha yil fasllari brin –ketin odamlarga, tabiatga qanday foyda keltirayotganliklari haqida so‘zlab beradilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarga murojaat qilib, yil fasllari fikrlariga kim qanday qo‘sishimchalar kiritishi, yil fasllari haqida she’rlar, qo‘shiqlar, hikoyalar aytib berishi mumkinligini so‘raydi.

“Eslab qoling” usuli. Bu usul xotira mashqi hisoblanadi. Bu usul orqali o‘quvchilarda tinglab tushunish, so‘zlab berish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Bunda o‘quvchilar bilan matnlar ustida ish olib boriladi. Dastlab, matn o‘qituvchi tomonidan audeo, video shaklda, yoki og‘zaki o‘qib eshittiriladi. Keyingi bosqichda o‘quvchilar tomonidan ketma-ketlikda o‘qiladi. So‘ng kitoblar yopilib, matnnning so‘zlari so‘raladi. To‘g‘ri matn so‘zlarini eslab qolish qiyin.



O'quvchilar matnning so'zlarini aynan yodda saqlashi shart. Bu usul o'quvchilarni e'tiborli bo'lishga undaydi. Bunda o'quvchilar matn tahlilini o'rganadi. Matnni aynan davom ettirolmagan o'quvchiga salbiy fikr bildirilmaydi.

Bu usul o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi va xotirasini o'stiradi.

Xullas, bilim-dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Zeroki, bilim bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatadi. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qiladi, Savobni gunohdan, halolni haromdan, pokni nopolkan ajratib beradi. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarib, yomon fe'llardan, bema'ni ishlardan qaytaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuhamedov R.J. Ta'lif va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar.
- 2.“Boshlang'ich ta'lif” jurnali. 2014-yil №2- soni
- 3.Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012-yil
4. Turdiyev N.Sh. Umumiy o'rta ta'lif tizimida o'quvchilarning kompetensiylarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalari, 2015-y,
- 5.Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimedya .uz